



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GWARDIYASI QO‘RIQLASH XIZMATIDA DUCH KELAYOTGAN MUAMMO VA YECHIMLAR

---

*Xaydarov Saidvaqqos Abbosovich*

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*

*Magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Hozirgi xavf-xatarga to‘la bir davrda inson xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan xarakterlar, chora va tartiblar soni yetarli va o‘rinli bo‘lsada afsuski ulardagi mavjut hatto-kamchilaklar o‘z vaqtida bartaraf etilmasa achinarli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ushbu xavfni bertaraf etishga esa yordam beruvchi omillardan biri ishlab chiqilgan va ishlab chiqiladigan qonun hujjatlariga tuzatishlar kiritish va qabul qilinadigan qonunlarni sodir bo‘layotgan voqea va hodisalardan kelib chiqqan holda qabul qilinishini ta‘minlashimiz lozim.

**Kalit so‘zlar:** PQ-4997, yo‘l qo‘yilgan hatolar, vakolatni suistemol qilish holatlari, me‘yoriy hujjatlar.

*Keyingi yillarda “xalq va armiya – bir tanu bir jondir” degan ezgu g‘oya asosida qurolli kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borayotgan islohotlarimiz natijasida milliy armiyamizda chuqur sifat o‘zgarishlari yuz bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda[1].*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev*

Darxaqiqat o‘tgan yillar davomida xarbiy xizmatchi va xodimlarning nufuzi, ularga nisbatan xalqning nuqtai-nazari o‘zgarganini kuzatib bormoqdamiz. Shu boisdan Milliy gvardiya yelkasidagi zimmalar oshib ularga bo‘lgan talab ham, e‘tibor ham, yuksalmoqda.

Mamlakatimizda xalqning osoishtaligi, hususiy va davlat ob‘yektlari xavfsizligini ta‘minlash maqsadida qurolli kuchlarning ish faoliyatlariga qator o‘zgartirish va yangiliklar kiritildi. Hususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi qaroriga asosan Qo‘riqlash bosh boshqarmasi Milliy gvardiya tarkibiga kiritildi. Buning natijasida Milliy gvardiya zimmasiga davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini shartnoma asosida qo‘riqlashga doir vazifalar yuklatildi. Uning tarkibida ushbu vazifalarni bajaruvchi organga “O‘zbekiston



Respublikasi Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati Bosh boshqarmasi” nomi berildi. Natijada “Milliy gvardiya”ning imkoniytlari va xizmat olib boruvchi hududlari kengayishi bilan birgalikda funktsional vazifa va majburiyatlari ham ortdi.

Ushbu o‘tgan davr mobaynida soxada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi va bu jarayonda tizimda mavjud bo‘lgan bir qancha muammolar yuzaga chiqdi. Ularni ba‘zilari haqida ma‘lumot berish bilan birgalikda, ularga ilmiy yondashgan holda yechim topish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb topdik.

Hususan yangi tuzilgan soxaning tarkibiy qismidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun 20.02.2021 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning PQ-4997 sonli qarori elon qilindi. Qarorda “Milliy gvardiya Qo‘riqlash bosh Boshqarmasi”ning tarkibiy tuzilishi, bajaradigan vazifalari, oylik maoshlari haqidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilgan. Ushbu qarorning e‘lon qilinishi soxada yuzaga kelgan eng birinchi muammolardan biri tarkibiy va moddiy masalalar yuzasidan savollarga javob berib, muammoni hal qildi. Ammo hayot tarzini keskinlashganligi, axborot almashuv jarayonlari tezlashganligi, globallashuv jarayonlarining hodimlarga psixologik va fiziologik ta‘sirini inobatga olsak, hodimlarning xizmat jarayonida hamda xizmat vazifalarini bajarib bo‘lgandan keyin ham, bir qator ko‘ngilsiz xolatlar yuzaga kelayotganligini guvohi bo‘lib turibmiz. Bundan tashqari yo‘l transport hodisasi ishtirokchisi bo‘lish, korrupsiya va o‘z vakolatini suiste‘mol qilish kabi bir qancha qonun buzilishlari ham uchrab turgani ham, soxada amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan ishlarni naqadar muhim ekanligiga ishora qilib turibdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan quyidagi axborotlarni taxlil qilsak:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya Qo‘riqlash bosh Boshqarmasi xodimi 17-oktyabr kuni Olmazor tumani prokuraturasi binosida o‘ziga birlashtirilgan qurol bilan o‘zini otib o‘z joniga qasd qilgan. Bosh prokuratura axborot xizmati rahbari Hayot Shamsutdinovning “Daryo” so‘roviga asosan ma‘lum qilishicha, u 30 yoshda bo‘lgan.[2]

*Toshkent tumanida xizmat vazifasini bajarayotgan gaz ta‘minot bo‘limi xodimiga daydi o‘q kelib tegadi. Ekspertiza jangovar o‘q Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi universitetining o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazayotgan kursantlari tomonidan “SVD” merganlik qurolidan otilganini tasdiqladi. Jinoyat alomatlari yo‘q degan vaj bilan ishni tugatgan harbiy prokuratura Kun.uz surishtiruv davrida uni qayta ko‘rishni boshladi.*

2022 yil 15 mart kuni Toshkent tuman gaz ta‘minot bo‘limi xodimi Davron Nosirov tumandagi Bunyodkor mahallasida fuqaroning uyiga xizmat ko‘rsatish



uchun borgan. U gaz hisoblagichga plomba oʻrnatayotgan vaqtda beliga oʻq kelib tekkan.

Jabrlanuvchi darhol Toshkent tibbiyot akademiyasi shoshilinch jarrohlik boʻlimiga olib kelinadi. Lekin 16 martga qadar ham shifokorlar uning tanasidagi oʻqni olisholmagan. Shundan soʻng bemor Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy gospitaliga olib kelinadi. U yerda bemor tanasidan oʻq olib tashlanadi.

Tayinlangan sud-ballistik ekspertiza xulosasiga koʻra, Davron Nosirovning tanasidan olingan metall jism (oʻq) Dragunov merganlik quroli (SVD)ning 7,62 kalibrli oʻq qismi boʻlib chiqadi. Maʼlum boʻlishicha, undan 15 mart kuni Davron Nosirov xizmat koʻrsatayotgan mahalla yaqinida joylashgan Jamoat xavfsizligi universitetining oʻquv mashgʻulotlari jarayonida foydalanilgan. Bu haqda prokuratura tomonidan jabrlanuvchi ishlaydigan Toshkent tuman gaz taʼminot boʻlimi va u sirtqi taʼlimda oʻqiydigan Milliy universitet rahbariyatiga yuborilgan maʼlumotnomada aytiladi[3].

DXX Samarqand viloyati boshqarmasi xodimlari tomonidan tezkor tadbir oʻtkazilgan. Unda Oqdaryo tumanida yashovchi, Milliy gvardiya Samarqand viloyati qoʻriqlash boshqarmasi Ishtihon tumanlararo qoʻriqlash boʻlimi xodimi F.O. fuqaroga nisbatan qoʻzgʻatilgan jinoyat ishini mansabdor tanishlari orqali ijobiy hal qilib berishni vaʼda qilib, undan 1 500 dollar olgan vaqtida ushlangan[4].

Oʻzbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi Olimjon Oʻsarov «Sevimli» telekanali muxbiri va tasvirchisi hamda Human.uz xodimi bilan bogʻliq holatlar boʻyicha Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya mutasaddilaridan xodimlariga nisbatan chora koʻrishni talab qildi.

Maʼlum boʻlishicha, joriy yilning 11 iyun kuni Toshkent shahridagi «Paxtakor» stadionida futbol boʻyicha U-23 Osiyo kubogi chorak finali doirasida Oʻzbekiston – Iroq oʻyinini yoritishga borgan «Sevimli» telekanali muxbiri va tasvirchisiga nisbatan ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya xodimlari tomonidan kuch ishlatilgan. Mikrofoni va kamerasini tortib olingani kamlik qilganidek, xodimlar tomonidan kaltaklangan. Xuddi jinoyatchi kabi jurnalistlarning qoʻllarini qayirib, Shayxontohur tuman IIB binosiga olib borishgan...

Jabrlangan muxbirning aytishicha, ichki ishlar xodimlari undan kechirim soʻrab, ortiqcha gap qilmasligi va biron joyda gapirib yurmasligini tayinlagan[5].

Bunday holatlar yuzaga kelishiga qanday omillar sabab boʻlganligi va kelgusida ushbu holatlar takrorlanmasligi uchun qanday ishlar olib borishimiz lozim? degan savol bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biriga aylanishi lozim desak adashmagan boʻlamiz.



Xozirgi kunda qonunchilikda, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, pora olish yoki berish, ushbu jarayonda vositachilik qilish kabi xolatlarga jazo muqarrar ekanligi belgilab qo'yilgan, hamda bunday xolatlarni oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar ham o'tkazilib kelinmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 5-bo'lim 205-moddasiga ko'ra (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suist'emol qilish):**

Bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

### **206-modda. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish**

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'ziga qonun bilan berilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqadigan harakatlarni qasddan sodir etishi, fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi[6].

Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan holatlardan yana biri, mansabdor shaxsning korrupsiyaga yol qoyishiga(pora olish) guvoh bo'lyabmiz. Bunday shaxslarga esa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210 moddasi(pora olish) qollanilib jazoga tortiladi:

#### **210-modda. Pora olish**

Pora olish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi, —



bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Pora olish:

a) takroran, xavfli retsdivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 211 yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko‘p miqdorda;

v) tamagirlik yo‘li bilan;

g) bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Pora olish:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi[6].

Xo‘sh nega unda xodimlar tomonidan jinoyat kodeksining yuqorida keltirilgan moddalar talablarini buzganligi holatlariga duch kelmoqdamiz? Masalani bir qancha sabablarini tadqiq etsak:

Oddiygina misollardan boshlasak. Safdor sifatida faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan fuqaro, ko‘pincha kollej yoki 11 sinfni tamomlab, 1 yillik yoki 1 oylik muddatli xizmatdan so‘ng o‘z faoliyatini boshlaydi. Bu esa hodimning huquqiy madaniyatini oshirish hamda faoliyatida duch kelishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarlik holatlarini, ularga qarshi turish uchun immunitet hosil qilish yo‘lida olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish lozimligini ko‘rsatib turibdi.

### **Xulosa va taklif o‘rnida quyidagilarni keltirib o‘tishni lozim deb topdik.**

1. O‘z joniga qasd qilish xolatlarini oldini olish yuzasidan, soxada faoliyat yuritayotgan psixologlar tomonidan naryad xizmatiga jalb etilgan shaxsiy tarkib bilan diagnostik suhbat, psixokonsultatsiya, hamda psixologik xulosalar berib borilishini yanada kuchaytirish. Bu bilan hodimni naryadga jalb qilinishidan oldin uning, ruxan tayyor ekanligiga ishonch xosil qilgan bo‘lamiz.

2. Xodimlarni saralab olish jarayonida uning huquqiy bilimlarini tekshirish yo‘lga qo‘yilsa, bu borada kadrlar bilan shug‘ullanadigan ofitserlar mas‘uliyatini oshirib borsak, hamda huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan tadbirlar davomida hodimlarni huquqiy bilimlari muntazam tekshirib borilsa, hamda raxbarlar tomonidan huquqiy bilimlarni o‘zlashtirmagan xodimga nisbatan o‘z munosabatini bildirib borilsa masalaga chuqurroq yondashgan bo‘lamiz.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Vatan himoyachilar kuni” munosabati bilan bayram tabrigidan. 13.01.2024 prezident.uz
2. <https://daryo.uz/2023/10/17/toshkentda-milliy-gvardiya-xodimi-ozini-otib-qoygani-aytilmoqda>
3. <https://kun.uz/news/2022/06/07/milliy-gvardiya-snayperi-fuqaroni-otib-qoygan-harbiy-prokuratura-esa-ishni-yopib-yuborgan>
4. <https://kun.uz/news/2024/02/08/samarqandda-milliy-gvardiya-xodimi-va-advokat-pora-bilan-qolga-olindi>
5. <https://kun.uz/news/2022/06/13/jurnalistlarga-ketma-ket-tahdidlar-jurnalistlar-uyushmasi-iiv-va-milliy-gvardiyadan-xodimlariga-chora-korishni-talab-qildi>
6. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Ko‘deksi BESHINCHI BO‘LIM HOKIMIYAT, BOSHQARUV VA JAMOAT BIRLASHMALARI ORGANLARINING FAOLIYAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR XV bob. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar 205, 206 va 210 moddalari <https://lex.uz/docs/-111453#-266471>